



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 306 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibril ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullarga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinov Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlarini	148
Mamadiyev Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallovkova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	

O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	
Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik	201
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni	204
Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi	
The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach	207
Abdukhaliyeva Feruzakhon Ulugbek kizi	
Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	210
Abdullayeva Ugiloy Djurayevna	
Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti	214
Aripova Sayida Abdullaxatovna	
Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi	217
Rasuljon Atamuratov	
Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi.....	221
Azizova Shodiya Utkur qizi	
Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari	224
Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna	
O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash.....	228
Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li	
Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar	232
Ochilova Sarvinoz Salim qizi	
Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari	236
Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi	
Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari.....	239
Risvayeva Charos Zaydilla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi.....	242
Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon	
Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli	245
Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi	
Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni	248
Umirova Guldon Jamoliddin qizi	
Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari	251
Ungalov Akmal Navruzovich	
Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi	254
Xabirova Zulfiya Anvarbekovna	
Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati	257
Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li	
Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati.....	260
Yuldasheva Mastura Islamovna	
Пословицы и поговорки как отражение картины мира	263
Алламбергенова Шахноза Садатдиновна	
Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni	268
Abdumannopov Muhammadsahib Muhammadyusuf o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar.....	272
Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna	



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	280
O'rinova Nilufar Muhammadovna	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li	
Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida.....	290
Tugalova Madina Erkin qizi	
Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari	297
Xanova Dilrabo	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies	303
Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna	

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI KASBIY-KREATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası, Boshlang'ich ta'lim fakulteti

Annotatsiya: Innovatsion-kreativlikka asoslangan ta'lim tizimi jamiyat rivojlanishini amalga oshirishning samarali vositasidir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirish omillari ta'sirini baholash, ijodkorlikka asoslangan ta'limiy faoliyatni tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish, kreativlikka asoslangan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarblig kasb etmoqda. Boshlang'ich ta'limga bunday yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi talablariga mos ravishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish alohida dolzarblig kasb etishini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, maqolada kasbiy kreativlik tushunchasining mohiyati yoritilgan hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kreativ, kreativlik, kasbiy kreativ kompetensiya, innovatsion yondashuv, ta'lim sifati, kreativ tafakkur, yaratish, yangiliklarni amalga oshirish, ijod, ijodkorlik, ijodiy qobiliyat natijasi, konstruktiv original fikrlash, kreativlikni rivojlantirish tamoyillari.

Abstract: Education based on innovation and creativity is an effective means of implementing the development of society. Assessment of the influence of creativity development factors in future elementary school teachers, improvement of the methodical system of organizing educational activities based on creativity, and development of pedagogical-psychological features of creative ability development in accordance with the requirements of the individual-oriented educational strategy are becoming more relevant. From this point of view, the essence of the concept of professional creativity is explained in the article, as well as the specific features of developing the professional-creative competence of future elementary school teachers.

Key words: creative, creativity, professional creative competence, innovative approach, quality of education, creative thinking, creation, implementation of innovations, creativity, result of creative ability, constructive original thinking, principles of creativity development.

Аннотация: Образовательная система, основанная на инновациях и креативности, является эффективным инструментом реализации развития общества. Оценка влияния факторов развития креативности у будущих учителей начальных классов, совершенствование методической системы организации образовательной деятельности, основанной на творчестве, разработка педагогических технологий, ориентированных на креативность, приобретает особую актуальность. Такой подход к начальному образованию, соответствующий требованиям стратегии личностно-ориентированного обучения, подчеркивает важность формирования профессиональных навыков у будущих учителей начальных классов, а также выявления психолого-педагогических особенностей развития творческих способностей. С этой точки зрения в статье раскрыта сущность понятия профессиональной креативности, а также изложены особенности формирования профессионально-креативной компетентности будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: креатив, креативность, профессиональная креативная компетентность, инновационный подход, качество образования, креативное мышление, создание, внедрение новшеств, творчество, результат творческих способностей, конструктивное оригинальное мышление, принципы развития креативности.



KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish, sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish ustuvor vazifalar etib belgilandi.

Prezidentimiz tomonidan: "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir! Shu bois, 2023-yildan maktab ta'limini xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilishni boshlaymiz. Bu ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilinadi. Milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytiriladi", – deb ta'kidlandi.

Demak, bugungi kun o'qituvchilari ta'lim-tarbiya ishlarida faol qatnashar ekanlar, ular o'z faoliyatlarini zamon bilan hamohang tarzda tashkil etishlari talab etiladi.

Shuningdek, umumta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari umumiy va maxsus kompetensiyalarga ega bo'lishi hamda o'z faoliyatida ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon eta olishi lozim.

Bolalar iqtidori, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilari kreativligining tarkibiy asoslarini belgilash, motivatsion va ilmiy-metodik yondashuvlarning imkoniyatlarini takomillashtirish – bo'lajak pedagogning kasbiy-ijodiy mahoratiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shu bilan bir qatorda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirish omillari ta'sirini baholash, ijodkorlikka asoslangan ta'limiy faoliyatni tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish, kreativlikka asoslangan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarblik kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'limga bunday yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi talablariga mos ravishda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish alohida dolzarblik kasb etishini ko'rsatadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik sifatlariga ega bo'lishi ularning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Shuningdek, o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli, yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi.

Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi – o'quvchilarning o'quv faoliyati va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi.

Alohida qayd etish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Kreativlik (lotincha create – yaratish, creative – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilik tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi. Mazkur tushunchaning turli nuqtai nazarlarga asoslangan talqinlari mavjud. Falsafada kreativlik – biror yangi narsani yaratish yoki qandaydir usullar asosida yangilikni amalga oshirish, muammoni hal etishning yangi yechimlari, yangi metod yoki vosita, yangi san'at asari sifatida talqin etiladi. Psixologik nuqtai nazardan kreativlik ko'proq ijodga umumiy qobiliyatlilik bilan aloqadorlikda talqin qilinadi. Hozirda mazkur atama original yechimlarni izlab topish, nostandart harakatlarni amalga oshirishga tayyorlik ma'nosini ifoda etadi. Psixologiyada kreativlik deganda "yangi g'oya, yechim, metodlar, nazariyalar yoki qandaydir faoliyatning yangi mahsulini ishlab chiqish" tushuniladi.

Kreativlikning mohiyatini aniqlash va bayon etishga doir ilmiy izlanishlar jarayonida ijodkorlik nazariyasi yoki ijodkor shaxsni rivojlantirish nafaqat xorijlik, balki respublikamiz olimlarida ham qiziqish uyg'otganligi aniqlandi.

Jumladan, Z. Nishonova o'quvchilarda mustaqil-ijodiy fikrlashni shakllantirish nuqtai nazaridan kreativlikni divergent va konvergent tafakkur bilan bog'liqlikda talqin etgan. P. Ergashev, G. Gozibekova, G. Baykunusovalar kreativlikni yuksak ijodiy qobiliyatlar natijasi sifatida talqin qilishgan. Ularning fikricha, shubhasiz, yuksak ijodiy qobiliyatlar qandaydir yagona va hatto bir necha omilning emas, balki pedagogik-psixologik shart-sharoitlarning kattagina kompleksi mahsulidir.

Kreativlikka doir ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab manbalarda kreativlik noyob hodisa sifatida tushuniladi. Zamonaviy ilmiy ishlarda esa kreativlikni individning intellektual va shaxsiy xususiyatlari majmui sifatida talqin qilish tendensiyasi kuzatiladi. Fikrimizcha, psixologik nuqtai nazardan, kreativlik tushunchasiga quyidagicha izoh berish maqsadga muvofiq: "Kreativlik – shaxs va jamiyat qiziqishlari bilan bog'liqlikda o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar doirasiga taalluqli vazifalarni hal etishda insonning konstruktiv va original fikrlashga tayyorligidir."

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Muammoga doir manbalar tahlili natijasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning quyidagi omillarini ko'rsatish mumkin:

- ijod kishilari bilan muloqotga kirishish va mustaqil, asosli fikr mavjudligi;
- o'z hissiyatlarini ifoda eta olish va o'quvchilarga ham shunday imkoniyatni yaratish (bolaning emotsional kechinmalari qadrlanishi lozim);
- o'quvchilarning qiziqishiga ko'ra mashg'ulotlar orqali ularni ijodkorlikka yo'naltirish (san'at asarlarini sahnalashtirish jarayonida rollarni ijro etishda bolaning ijodiy faoliyat turini tanlashga o'rgatish);
- ta'lim jarayonida tadqiqotchilik faoliyatiga ijobiy munosabatda bo'lishni kundalik kasbiy zaruratga aylantirish.

Pedagogikada kreativlik insonning "ijodga qobiliyatligi" sifatida qabul qilinib, intellektning rivojlanish darajasi bilan aloqadorlikda tahlil qilinadi. Jumladan, A. Aripdjanova oliy ta'lim muassasalari pedagoglari tarkibining kreativ salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq holda kreativlik tushunchasining mohiyatini quyidagi tarzda bayon etgan: "maqbul imkoniyatlarni safarbar etish orqali, shaxsni muammoni qabul qilish, yangi, noodatiy mahsulot yaratish qobiliyati". I. Ibragimovanning fikricha, kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xususiyatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi. Kreativ pedagogika yoki kreativlikka asoslangan pedagogika deganda istalgan o'quv fani doirasida qo'llash mumkin bo'lgan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik bilimlar sohasi tushuniladi. Sh. Sharipov o'quvchilarning kasbiy ijodkorligi uzviyligini tadqiq etish asosida ijod – insonning fan, texnika, ishlab chiqarish, madaniyat va boshqa sohalarida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangilik yaratishi bilan bog'liq murakkab psixologik jarayondir, degan xulosaga kelgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan ijod – o'quvchilarning xohish-istaklari, ehtiyojlari hamda ularga ta'lim-tarbiya berish maqsad va vazifalariga mos, qulay ta'lim muhitini tashkil etishga doir o'qituvchining yaratuvchanlik va izlanishli-tadqiqotchilik faoliyatidir.

Ijodkorlik – individning ijodkorlik qobiliyati, noodatiy fikrlarni o'ylab topish, an'anaviy fikrlash doirasidan chetlashish, muammoli masalalarni tezda hal etish qobiliyatidir. U yangi g'oyalarni yaratishga doimo tayyorlik bilan tavsiflanadi va qobiliyat tuzilmasi komponenti bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida ijodkorlik tushunchasiga "ijodkor ishi, ijodkorga xos faoliyat; yaratuvchilik" tarzida qisqa ta'rif berilgan.

Pedagogik ensiklopedik lug'atda "Ijodiy faoliyat – sifat jihatdan yangini yaratishga doir inson yoki jamoaviy faoliyat shakli. Ijodiy faoliyatning zaruriy sharti fikrning egiluvchanligi, tanqidiylik, idrok etishning yaxlitligida aks etadi", deb izoh berilgan.

Mazkur lug'atda "ijod" va "ijodkorlik" tushunchalariga alohida ta'rif berilmagan.

Falsafiy, pedagogik-psixologik adabiyotlarda "ijodkorlik" original, takrorlanmaydigan, ijtimoiy-tarixiy noyoblik bilan ajralib turuvchi faoliyat turi sifatida e'tirof etiladi. Til ta'limi nuqtai nazaridan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kreativlikni rivojlantirish tushunchasini quyidagicha ta'riflash mumkin: o'qituvchining o'quvchilarni ijodkorlikka undovchi turli o'quv topshiriqlarini bajarish, vaziyatlarni hal etishda noodatiy yondashuvni shakllantirish, yangi g'oya va nuqtai nazarlarni erkin ifoda etish, fikrning egiluvchanligi va tasavvurning boyligini shakllantirishga, innovatsion texnologiyalardan oqilona foydalanish orqali o'quvchilarda tanqidiy-mulohazali fikrlash malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyati.

Mavzu doirasidagi manbalar tahlili natijasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kreativlikni rivojlantirishning muhim tamoyillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- ta'limiy faoliyatni ilmiy-metodik jihatdan maqsadga yo'naltirilgan izchil va tizimli ravishda tashkil etish;
- o'quv-tarbiya jarayoniga majmuaviy yondashish;
- o'qitishda tizimlilik va talaba shaxsiga yo'naltirilganlikni ta'minlash
- har bir mashg'ulotga ijodkorlik bilan yondashish.



“Kreativlik” va “ijodkorlik” tushunchalarining semantik qobig'ida sezilmas darajada farqlanish mavjud. Ijodiy jarayon muallifning ilhomiga, uning qobiliyatlariga, amal qiladigan an'analarga asoslanadi. Kreativ jarayon haqida gapiradigan bo'lsak, uning asosiy tarkibiy qismi pragmatik elementga aylanadi, ya'ni nima uchun, kim uchun, qanday qilib va aynan nimani yaratish zarurligini tushunish lozim. Ijodkorlik har doim birlamchi va fundamentaldir. Kreativlik – ijodkorlikni amalga oshirish texnologiyasi sifatida izohlanadi. Biroq ijodiy mahsulotda u pragmatik maqsadga bo'ysunadi.

Kreativliksiz ijodkorlik bo'lishi mumkin emas. Kreativlik – shaxsning intellektual rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lib, bu ikki tushuncha o'rtasida tenglik belgisini qo'yish mutlaqo to'g'ri emas. Deyarli har doim ijodiy faoliyat haqida gapirganda, biz ushbu faoliyat mahsulotini – rasm, she'r yoki mustaqil g'oya bo'lishidan qat'i nazar – nazarda tutamiz. Shu bilan birga, o'zbek tilida “kreativlik” mahsulotlarini “ijodkorlik” deb atash odat tusiga kirgan. Ya'ni bu atama shaxs doirasidan tashqariga chiqib, faoliyat natijalariga o'tayapti.

“Ijodkorlik” atamasiga esa bunday o'tish mumkin emas.

“Kreativlik” atamasini o'zbek tiliga “ijodkorlik” deb tarjima qilishda ifodalanishi mumkin bo'lgan mazmundan ko'ra aniqroq ma'noga ega. Ijodkorlik haqida gapirganda, biz shaxsning atrof-muhitning fenomenal va semantik mohiyatini, ob'ektiv haqiqatni sub'ektiv bilish jarayonini nazarda tutamiz. Bu – moddiy mahsulot yaratish haqida emas. Kreativlik jarayonining natijasi – shaxsni shakllantirish, noyob mikrokosmosni yaratish, insonning individual psixikasi va ruhidir. O'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish nazaridan ijod – bolalarning xohish-istaklari, ehtiyojlari hamda ularga ta'lim-tarbiya berish maqsad va vazifalariga mos, qulay ta'lim muhitini tashkil etishga doir yaratuvchanlik va izlanishli-tadqiqotchilik faoliyatidir.

Ijodkorlik – individning ijodkorlik qobiliyati, noodatiy fikrlarni o'ylab topish, an'anaviy fikrlash doirasidan chetlashish, muammoli masalalarni tezda hal etish qobiliyatidir. U yangi g'oyalarni yaratishga doimo tayyorlik bilan tavsiflanadi va qobiliyat tuzilmasi komponenti bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida ijodkorlik tushunchasiga “ijodkor ishi, ijodkorga xos faoliyat; yaratuvchilik” tarzida qisqa ta'rif berilgan. Pedagogik ensiklopedik lug'atda “Ijodiy faoliyat – sifat jihatdan yangini yaratishga doir inson yoki jamoaviy faoliyat shakli. Ijodiy faoliyatning zaruriy sharti fikrning egiluvchanligi, tanqidiylik, idrok etishning yaxlitligida aks etadi”, deb izoh berilgan. Mazkur lug'atda “ijod” va “ijodkorlik” tushunchalariga alohida ta'rif berilmagan. Yuqoridagi fikrlar asosida ta'kidlash lozimki, ijodiy faoliyatni amalga oshirish uchun, ayniqsa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida, kreativ potensial bo'lishi lozim. Shaxsning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. U – ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egaligini va tayyorligini ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potensial negizida har bir shaxsning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ potensial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, an'anaviy tafakkurdan farqli ravishda tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligida, yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatida, shuningdek, shaxs xarakteriga xos jihatlarida – bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilish, zakovatlilikda aks etadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishda uning muayyan muammolarni hal qilishga intilishi, kichik ilmiy-tadqiqotlar olib borishi va bu jarayonga qiziqish doirasi bir xil bo'lgan kasbdoshlari bilan o'zaro ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish uchun ularda kreativ tafakkurni takomillashtirish lozim. Fikrimizcha, kreativ tafakkurga ega o'qituvchilar quyidagi jihatlari bilan ajralib turishlari kerak:

- boshqa o'qituvchilarning xayollariga kelmagan g'oyalarni ilgari surish;
- o'zini namoyon etishning o'ziga xos uslubini tanlash;
- yechimi ochiq qolgan vazifalarni noodatiy usulda hal etishga intilish;
- dalillardan ko'ra g'oyalarni muhokama qilishni afzal ko'rish;
- muammo yechimini topishda noan'anaviy yondashuvni tanlash;
- kundalik faoliyatda ijodkorlikni kasbiy zaruratga aylantirish;
- faoliyat natijasida ijodiy mahsulot yaratish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faolligi quyidagi shaxsiy xususiyatlarni o'zida aks ettiradi: yangi bilimlarni o'zlashtirishga barqaror motivlarning shakllanganligi, bilish jarayoniga ijobiy emotsional yo'nalganlik, o'quv vazifalarini hal etishda odatiy o'quv harakati usullarini bartaraf etishga intilish, muammo yechimining nostandart metod va usullarini izlash, o'quv-bilish faoliyatidagi qat'iylik hamda ijodiy bilish faoliyatining natijaviyligi. Mavjud ilmiy-metodik manbalar tahlili asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativligini shakllantirishda quyidagi mezonlarni ko'rsatish mumkin: motivatsion-emotsional, irodaviy, kognitiv, faoliyatli-ijodiy.

Motivatsion-emotsional mezon ko'rsatkichlari: faoliyatda ishtirok etish istagi, onglilik, ko'proq bilishga intilish, ijobiy emotsional holat, ishtiyoq, faoliyatdan qoniqish hissi. Irodaviy mezon ko'rsatkichlari: qat'iylilik, bilishga yo'nalganlik, jur'atlilik. Bilishga doir mezon ko'rsatkichlari: mo'tadillik, moslashuvchanlik, ishchanlik, fikrlashning individual o'ziga xosligi. Faoliyatli-ijodiy mezon ko'rsatkichlari: jadallik, ijodiy bilish faoliyatining natijaviyligi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini shakllantirish jarayoni quyidagi texnologik bosqichlarga asoslanishi zarur: motivatsiyani faollashtirish, ijodiy muhit yaratish, ijodiy tavsifdagi o'quv-kasbiy vazifalarni qo'llashda tabaqalashtirilgan yondashuv, refleksiya, texnik va metodik ta'minotni tashkil etish, hamda tayyorlovning barcha bosqichlarida kreativ salohiyatni rivojlantirishning o'ziga xosliklarini hisobga olish. Bu omillar ushbu faoliyatning samaradorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy Majlisga Murojaatnomasi". – Toshkent, 2022, 20.12.
3. Aripdjanova A.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining avtoreferati. – T.: 2017. – 50 b.
4. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining avtoreferati. – T.: 2017. – 39 b.
5. Nikolaeva Ye.I. Psixologiya detskogo tvorchestva [Matn] / Ye.I. Nikolaeva. – SPb: Rech, 2002. – 220 s.
6. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psixologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – T.: 2005. – 391 b.
7. Pedagogicheskiy entsiklopedicheskiy slovar'. – M.: Bolshaya Rossiyskaya entsiklopediya, 2002. – 527 s.
8. Ergashev P., Gozibekova G., Baykunusova G. Talabalarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning uslubiy jihatlari (uslubiy qo'llanma). – T.: 2013. – 56 b.
9. Sharipov Sh. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasining avtoreferati. – T.: 2012. – 46 b.
10. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2-jild. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – 704 b.
11. Muhammadiyeva X.K., Ergasheva G.Z. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(2), 10–14.
12. Muxammadeva X.K., Nurmuratova I., Tulaganova S., Jumaniyazova M. (2022). O'quvchilardagi kitobxonlik madaniyati orqali altruistik motivlarni rivojlantirish. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2(3), 1284–1288.
13. Мухаммадиева Х.К., Исматуллаева Ф.Р. (2022). Бошлангич синфларда дидактик жараёнда боланинг ривожланишини таъминловчи технологияларни такомиллаштиришнинг илмий-педагогик таҳлили. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(2), 77–82.
14. Muhammediyeva K. (2020, June). The Idea "Personal Interests and the Priority of Education" in the Education as One of the Key Factors in Reforming School Education for Upbringing Perfect Individual. In Proceedings of International Multidisciplinary Scientific-Remote Online Conference on Innovative Solutions and Advanced Experiments (p. 22).
15. Абдуллаева Ш.А., Мухаммадиева Х.К. (2016). Девиант хулқли илк ўспирин ёшидагиларни ижтимоийлаштириш ва профилактика ишларини олиб бориш. Современное образование (Узбекистан), (11), 48–53.
16. Мухаммадиева Х.К. (2014). Начальные сведения о развитии арифметики в трудах учёных математиков Востока. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (3-2), 230–231.
17. Tuxtayevna H.M., Mahkambayevna E.G.Z., Karamatovna M.X. Methodological bases of development of socially active competencies of future primary school teachers in students and improvement of its methodology. International Journal of Health Sciences, (II), 10646–10654.
18. Эргашева Г.М., Мухаммадиева Х.К., Артикбаева Н.Н. (2021). Синфдан ташқари машғулотлар орқали ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтириш методлари. Science and Education, 2(5), 578–582.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.